

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года**

JIZZAX – 2024

xizmatlarni sifat ko'rsatkichlariga, eksport salohiyatini oshirib, YAIMni barqaror iqtisodiy o'sishini davomiyligini ta'minlab, aholining jahondagi o'rtacha yashash mayorlarga etkazilishiga xizmat qiladi. Institutsional islohotlarni davomiyligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaganligi, aholi jon boshiga tushadigan daromadni 1992 yilga nisbatan hisoblaganda 2023 yilga kelib 20-25 barobarga o'sganligini, ijtimoiy jihatdan mamlakat fuqarolarining farovon turmush madaniyatini shakllanganligidan dalolat bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.Toshkent - 2022 y.<https://nrm.uz>
2. Mirziyoev SH.M. "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni.Toshkent- 2023 y. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sahosisda davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 sonli Qarori.Toshkent-2023y. <https://lex.uz>

Internet saytlari:

4. <https://sputniknews.uz>
5. <https://opt.uz>
6. <https://gov.uz>
7. <https://advice.uz>

JIZZAX VILOYATI MAHALLALARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIIY MASALALAR: OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIK ALOQALARI

Qosimov Azimjon Sanaqul o'g'li

Maktab menejmenti kafedrası o'qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Jizzax viloyati mahallalarida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda oliy ta'lim muassasalari va mahalla hamkorlik aloqalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalari va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularni samarali hal etish uchun kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali aholini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Maqolada mazkur hamkorlik aloqalarining turli yo'nalishlari, amaliy natijalari va istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu hamkorlikni rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish hamda bandlikni ta'minlashga oid tavsiyalar beriladi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari va mahalla fuqarolar yig'inlari o'rtasidagi hamkorlikning muhim jihatlari, xususan, ta'lim va tadqiqotlarni real hayotdagi amaliy muammolar bilan bog'lash zarurati ta'kidlanadi.

Abstract:

This text discusses the role of cooperation between higher education institutions and communities in solving socio-economic issues in the Jizzakh region. It explores how the resources of higher education can help develop socio-economic support mechanisms in communities, including the preparation of personnel and the implementation of scientific products to support the population. The article also discusses various areas of cooperation and practical outcomes, providing recommendations for improving the welfare of the population, ensuring employment, and providing economic assistance to develop production. Additionally, it emphasizes the importance of linking education and supervision with practical issues in real life.

Kalit soʻzlar: Jizzax viloyati mahallalari, Oliy taʼlim muassasalari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, hamkorlik aloqalari, kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, mahalliy iqtisodiyot, bandlik, aholi farovonligi.

Keywords: neighborhoods of Jizzakh region, higher education institutions, socio-economic problems, cooperation, personnel training, scientific research, local economy, employment, population welfare.

Jizzax viloyatida mahallalar uzoq vaqtdan buyon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy markazlari boʻlib kelmoqda. Mahalla institutining jamiyatdagi roli, aholining farovonligini oshirishda, madaniy va iqtisodiy masalalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, oliy taʼlim muassasalari va mahallalar oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim omil boʻlib, aholining turmush darajasini oshirishda ham oʻziga xos oʻrin tutadi. [Karimov, I. A. 2015.]

Jizzax viloyati mahallalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari tahlil qiladigan boʻlsak, ushbu hamkorlikning mahallalarda turmush sharoitlarini yaxshilash va mahalliy aholini oʻqitishdagi ahamiyati koʻrib chiqiladi.

Jizzax viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar Jizzax viloyatidagi mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati koʻplab omillarga bogʻliq. Bular orasida aholi bandligi, daromadlar darajasi, taʼlim va tibbiyot xizmatlarining sifati kabi koʻrsatkichlar muhim rol oʻynaydi. Ayniqsa, qishloq joylarida aholi daromadlari asosan qishloq xoʻjaligiga bogʻliq boʻlib, bu esa mavsumiy daromadlarning oʻzgaruvchanligiga olib keladi. Shu bilan birga, aholining koʻplab qismi yetarlicha daromad topa olmaganligi sababli, kambagʻallik darajasi yuqorilgicha qolmoqda.

Soʻnggi yillarda, Jizzax viloyatida sanoat va kichik biznes rivojlanmoqda, bu esa iqtisodiy holatni yaxshilashda ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shuningdek, hukumat tomonidan qabul qilingan iqtisodiy islohotlar, xususan, mahallalarda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash dasturlari tufayli aholi turmush darajasi sekin-asta yaxshilanmoqda.

Mahallalarning rivojlanishidagi oliy taʼlim muassasalarining roli

Oliy taʼlim muassasalari jamiyatning har bir qatlamini, jumladan, mahallalar aholisini ham oʻz ichiga olgan bilim va koʻnikmalarni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Jizzax viloyatidagi oliy taʼlim muassasalari, xususan Jizzax davlat pedagogika universiteti va Jizzax politexnika instituti, viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim topishda faol ishtirok etmoqda.

Oliy taʼlim muassasalari oʻzining ilmiy salohiyati va tajribasidan foydalangan holda mahallalarda amalga oshiriladigan turli dasturlarda ishtirok etadi. Masalan, kasb-hunar va iqtisodiy koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan oʻquv dasturlari orqali yoshlar va ishsiz aholiga bilim va tajriba beradi. Ushbu oʻquv dasturlari aholi uchun yangi ish oʻrinlari yaratish imkonini berib, mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qoʻshadi. [Yuldoshev, A 2019]

Mahalla va oliy taʼlim muassasalari oʻrtasidagi hamkorlikning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- Taʼlim dasturlarini amalga oshirish: Oliy taʼlim muassasalari mahallalardagi yoshlarni, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda oʻquv kurslari tashkil qiladi. Bular tadbirkorlik, texnologiya, qishloq xoʻjaligi kabi yoʻnalishlardagi kurslar boʻlishi mumkin.

- Ijtimoiy xizmatlar: Mahallalardagi ijtimoiy xizmatlar, xususan, sogʻliqni saqlash, taʼlim va sport sohalarida hamkorlik muhimdir. Oliy taʼlim muassasalari talabalari va oʻqituvchilari bu borada oʻzlarining bilim va koʻnikmalaridan foydalanib, mahallalardagi ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etishlari mumkin.

- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar: Jizzax oliy taʼlim muassasalari mahallalar bilan hamkorlikda ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar olib borib, mahalliy darajadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimini topishga hissa qoʻshadi.

Bu tadqiqotlar orqali qishloq xo'jaligi, ekologiya, ta'lim va madaniyat sohalaridagi muammolar yechimini topish mumkin.

Jizzax viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik ijobiy natijalar bermoqda. Birinchidan, aholi bilim va kasb-hunar ko'nikmalarini oshirish orqali o'z iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlar sifati yaxshilanib, turmush darajasi ko'tarilmoqda. Mahalla va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi bunday yaqin hamkorlik, ayniqsa, qishloq joylardagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.[Xolmurodov, S. 2020]

Jizzax viloyati mahallalarida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik nafaqat mahallalarning iqtisodiy holatini yaxshilashga, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalari va mahallalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash orqali Jizzax viloyati aholisining farovonligini oshirish va ularning turmush sharoitlarini yaxshilash mumkin.

Jizzax viloyati statistika jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda Jizzax viloyati hududida Oliy ta'lim tashkilotlari va ularning faoliyat yo'nalishlari quyidagicha etib belgilangan.

Xususan: Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lamini tushunadigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to'g'ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim. Oliy ta'lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga: bakalavriat bosqichi–mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura bosqichi–aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yildavom etadigan oliy ta'limdir.[stat.uz 2019-20]

Jizzax viloyatida oliy ta'lim tizimida 3 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 1 ta universitet filiali faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida davlatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimining huquqiy bazasi yanada takomillashtirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2909-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida oliylik tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga tarish maqsadida, Respublika Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni tasdiqlandi.[PF-5847].

Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'limning barcha bo'g'ini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Jizzax viloyati bo'yicha 3 ta oliy ta'lim muassasalarida jami 18,0 ming nafar talabadan 14,3 ming nafari (79,2 %) kunduzgi ta'lim shaklida, 3,7 ming nafari (20,8 %) sirtqi ta'lim shakli bo'yicha tahsil olmoqda.

2019-2020-o'quv yili boshida Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalarida ta'limning barcha turlari bo'yicha bakalavriat bosqichiga jami abuturentlar tomonidan 55845 ta ariza topshirilgan bo'lib, Jizzax viloyati bo'yicha 100 o'ringa 970 nafar kishini tashkil etgan.[stat.uz]

Viloyatimizda oliy ta'lim muassasalarida jami 970 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo'lib, fan doktori ilmiy darajasiga ega 28 nafarni, fan nomzodlari 166 nafarni hamda falsafa doktori 31 nafarni tashkil etmoqda. Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 17 nafarni, dotsentlar 136 nafarni tashkil etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: 2023.04.30
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2020.03.02
3. Karimov, I. A. (2015). O'zbekistonning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
4. Yuldoshev, A. (2019). "Jizzax viloyatidagi ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlari." Ilmiy jurnali, 3(2), 45-58.
5. Xolmurodov, S. (2020). Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
6. Bekmurodov, O. (2022). "Oliy ta'lim va mahalla: hamkorlikni rivojlantirish yo'llari." Mahalliy boshqaruv va ta'lim 7(1), 19-34.
7. www.stat.uz
8. www.ziyounet.uz
9. www.uz.uz

BOSHQARUV TIZIMIDA AYOLLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH

Mavlanova Nargiza Eshquzievna

Ijtimoiy himoya milliy agentligining

Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i, tadqiqotchi.

nargizamavlanova@mail.ru

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mamlakatimizda boshqaruv tizimida ayollarning intellektual faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o'ziga xosligi, ayollarning boshqaruvdagi ishtirokining o'ziga xos farqli xususiyatlari o'rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: ayollar mehnati, intellektual salohiyat, demografi, , gender tengligi, turmush sifati, mehnat talablari.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mamlakatimizda boshqaruv tizimida ayollarning intellektual faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o'ziga xosligi, jumladan, ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ish bilan bandligini ta'minlashda gender munosabatlari bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollarning boshqaruvdagi ishtirokining o'ziga xos farqli xususiyatlari o'rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, ayollarning ijtimoiy mehnati, boshqaruvda ishtirok, gender tengligi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, ayollarning mavqeini oshirish, mehnat talablari.

Jahonda barcha darajadagi boshqaruv tizimida xotin-qizlar faolligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari masalalari hozirgi innovatsion, raqamli texnologiyalar davrida eng muhim dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xotin-qizlarning ish bilan bandligi darajasi global miqyosda kamayish tendensiyasiga ega. Jahon miqyosida ayollarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari erkaklarnikidan 27 foizga past. Ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq ishsiz bo'lib, global ishsizlik erkaklar uchun 5,5 foizga, ayollar uchun 6,2 foizga teng [<http://www.oecd.org>].

Yangi O'zbekistonda ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollar mehnatini tashkil etishda gender tengligi konsepsiyasiga asoslanib bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Mehnat resurslarining salmoqli qismini tashkil qilgan, ko'p qirrali kasbiy tajribasi va ma'lumot darajasi yuqori, uy xo'jaligini yuritish